

Akademik bilan uchrashuv

"Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasi mudiri D.Qodirov tashabbusi bilan 2019 yil 1 iyunida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi texnika fanlari doktori, akademik Zaxidov Romen Abdullaevich bilan institutimizning "Elektr energetikasi" yo'naliishi 2 va 3-bosqich talabalari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda talabalar o'zlarining "Qayta tiklanuvchan energiya manbalari" fanidan tayyorlagan ishlasmalari bilan qatnashdilar va akademik R.A.Zaxidovdan kerakli ko'rsatmalarni oldilar.

Bundan tashqari akademik R.A.Zaxidov tomonidan Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan chiqarilayotgan "Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha" qonunlarning hayotimizda tutayotgan o'rni va muhimligi to'g'risida talabalarga qiziqarli tarzda ma'lumot berdilar. Uchrashuv davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'laqonli javob olishdi.



"ETvaQTEM" kafedrasi dotsenti O.J. Pirimov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov